MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOYQUZIYEV ILXOM MARDANOQULOVICH

SIMMETRIK VA OCHIQ KALITLI SHIFRLASH ALGORITMLARINI BAHOLASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot va kiberxavfsizlik

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 004.056.55

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата дисертации доктора (DSc) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of physical and mathematical sciences (DSc)

Boyquziyev Ilxom Mardanoqulovich
Simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash usullari va algoritmlari.....3

Бойкузиев Илхом Марданокулович
Методы и алгоритмы оценки симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом.....29

Boykuziev Ilkhom Mardanakulovich
Methods and algorithms for evaluating symmetric and public key encryption algorithms 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....62

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOYQUZIYEV ILXOM MARDANOQULOVICH

SIMMETRIK VA OCHIQ KALITLI SHIFRLASH ALGORITMLARINI BAHOLASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot va kiberxavfsizlik

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.DSc/FM316 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.nuu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kuryazov Davlatyor Matyakubovich** fizika-matematika fanlari doktori
	Tuychiyev G‘ulom Numonovich fizika-matematika fanlari doktori
	Botirov Fayzullajon Baxtiyorovich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan).
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «____» _____ da tarqatildi.
(2026-yil «____» _____ dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

A.V. Kabulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda jahon miqiyosida simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini kriptotahlil usullariga baholash masalalariga oid tadqiqotlar dolzarb va zarur hisoblanadi, jumladan, chiziqsiz akslantirishlarning kriptotahlil usullariga bardoshliligini baholash, ochiq kalitli shifrlash algoritmlaridan faktorlash muammosiga asoslangangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitlarini aniqlash, shuningdek, ochiq kalitli shifrlash algoritmining yetarlicha katta modulini faktorlashga qaratilgan usul va algoritmlarni ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Amaldagi kriptografik tizimlarda algoritmlar, qo‘llanilayotgan kalit uzunliklari va parametrlar zamonaviy kriptotahlil usullariga va hisoblash qurilmalari quvvatlariga nisbatan qayta baholab borilishi lozim. Chainalysis ma’lumotlariga ko‘ra, “2024-yilda dunyo bo‘yicha kriptografik tizimlarga qaratilgan hujumlar oqibatida yetkazilgan zarar 2023-yilga nisbatan 21.07% ga oshgan va 2.2 milliard AQSh dollarni tashkil qilgan” [1]. Bunday ko‘lamdagi zararlarning oldini olish uchun, kriptotizimlar xavfsizligini ko‘p darajali, kompleks yondashuv asosida, jumladan, matematik hisoblashlar murakkabligiga tayangan baholash usullari bilan baholab borish zarur. Shu nuqtai nazardan, simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash uchun zamonaviy kriptotahlil usullarini yaratish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida bardoshli kriptografik algoritmlarni yaratish va ularning kriptobardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, avvalo, kriptotahlil usullari yordamida amaldagi shifrlash algoritmlarining zaif tomonlarini aniqlash, ularni turli hujum modellariga nisbatan baholash hamda natijalar asosida xavfsiz va bardoshli algoritmlarni loyihalashga dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Simmetrik shifrlash algoritmlarida qo‘llaniladigan chiziqsiz akslantirishlarning kriptobardoshliligini matematik mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Differensial, chiziqli, algebraik kabi kriptotahlil usullarga bardoshlilikni ta’minlash maqsadida S-blok va boshqa chiziqsiz komponentlarning xossalarini tahlil qilishga, ochiq kalitli kriptografiyada esa tadqiqotlar shifrlash tizimlarining matematik asoslarini chuqur o‘rganish, ularning murakkablik darajasini baholash hamda mavjud va ehtimoliy hujumlarga nisbatan xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladigan yangi yondashuvlarga asoslangan baholash usullarini ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda axborot xavfsizligini ta’minlash, xususan, kriptologiya sohasiga, axborotni kriptografik himoyasini tashkil etish, bardoshli kriptografik algoritmlarni va zamonaviy kriptotahlil usullarini yaratishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda kriptologiya sohasini ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarda muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-293 sonli Qarorida axborotni

[1] https://www.chainalysis.com/blog/crypto-hacking-stolen-funds-2025/

himoyalashda qo‘llanadigan kriptografik algoritmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etishi ta’kidlangan va ushbu Qaror bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida milliy kriptologiya sohasini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha 2024 - 2028-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturida zamonaviy kriptotahlil usullarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishi bajarilishi ko‘zda tutilgan[2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy kriptografik algoritmlarning kriptobardoshliligini baholash va tahlil qilishning yangi usullarini yaratish, yaratilgan usullar orqali kriptografik algoritmlarni baholash murakkabliklari bo‘yicha tajriba-sinovlarini o‘tkazish, ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2007-yil 3-apreldagi PQ-614-son “O‘zbekiston Respublikasida axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 31-maydagi PQ-167-son “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[3]**..**

Axborotni himoyalashning kriptografik usullari, simmetrik shifrlash algoritmlarini yaratish va ularni kriptotahlil usullariga baholash, simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini yaratish, kriptobardoshliligini baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (NIST) (AQSH), Milliy xavfsizlik agentligi (NSA) (AQSH), Yevropa telekommunikatsiya standartlari instituti (ETSI) (Fransiya), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) (Shveytsariya), Elektr va elektronika muhandislari instituti (IEEE) (AQSH), “UNICON.UZ” MChJ (O‘zbekiston), Massachusets texnologiya instituti (AQSH), Stenford universiteti (AQSH), Kaliforniya universiteti (AQSH), Karnegi Mellon universiteti (AQSH), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Syurix federal texnologiya instituti (Shveytsariya), Lozanna federal politexnika maktabi (Shveytsariya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), Leven katolik universiteti (Belgiya), Singapur milliy universiteti

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-293 sonli Qarori

[3] www.elsevier.com, www.springernature.com, www.ieee.org, www.acm.org, www.wiley.com, www.tandfonline.com, www.mdpi.com, www.worldscientific.com, www.siam.org, www.ams.org, www.ems.press, www.ioppublishing.org, www.nature.com, www.science.org, www.doaj.org, www.scopus.com, www.webofscience.com

(Singapur), Sinxua universiteti (Xitoy), Pekin universiteti (Xitoy), Tokio universiteti (Yaponiya), Koreya ilg‘or fan va texnologiyalar instituti (Janubiy Koreya), Tel-Aviv universiteti (Isroil), Veytsman fan instituti (Isroil), Hindiston texnologiya instituti (Hindiston), Nanyan texnologiya universiteti (Singapur), Rossiya Fanlar Akademiyasi (Rossiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Belarus davlat universiteti (Belarus), Qozog‘iston Milliy universiteti (Qozog‘iston), Qirg‘iziston-Turkiya Manas universiteti (Qirg‘iziston), Tojikiston Milliy universiteti (Tojikiston), Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi (Ozarbayjon), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (O‘zbekiston), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalar markazi (O‘zbekiston) va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Axborotni himoyalashning kriptografik usullari, simmetrik shifrlash algoritmlarini yaratish va ularni kriptotahlil usullariga baholash, simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini yaratish, kriptobardoshliligini baholashga oid dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: simmetrik shifrlash algoritmlari, ularning S-bloklari va chiziqsiz akslantirishlari asosida yangi konstruksiyalar ishlab chiqish, ularning xavfsizligi matematik jihatdan sinovdan o‘tkazish, ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini kriptografik baholash va amaliy tizimlarda qo‘llanilishi bo‘yicha nazariy va amaliy natijalar olingan va isbotlangan. Masalan, Rossiya va AQSHdagi ilmiy markazlar va universitetlarda simmetrik shifrlash algoritmlarini tahlil qilish orqali ularning zaif tomonlarini aniqlash va optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirilgan; AQSH, Xitoy va Yaponiya universitetlarida post-kvant kriptografiya algoritmlari va kriptotahlil usullari tadqiq qilingan; ochiq kalitli shifrlash va elektron raqamli imzo algoritmlari sohasida Germaniya, AQSH va Shveysariya kabi mamlakatlar tadqiqot markazlarida matematik modellar ishlab chiqilgan, kalit uzunliklari va xavfsizlik parametrlari baholangan; Fransiya va Italiya universitetlarida esa amaliy tizimlarda elektron raqamli imzo va kriptografik protokollarni sinash bo‘yicha ishlanmalar amalga oshirilgan. Kriptotahlil usullarini rivojlantirish bo‘yicha Janubiy Koreya, Isroil, AQSH, Rossiya va Hindiston ilmiy markazlarida algebraik hujumlar, differensial va chiziqli tahlil, yon kanal hujumlariga qarshi himoya mexanizmlari ishlab chiqilgan. Rossiya Fanlar Akademiyasi S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti, Hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti, Ufa ilmiy markazining hisoblash markazli Matematika instituti hamda Moskva va Sankt-Peterburg davlat universitetlarida simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlari hamda ularning kriptobardoshliligi bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu boradagi tadqiqotlar AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Shveytsariya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya universitetlarida va ilmiy markazlarda olib borilmoqda, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (O‘zbekiston), “UNICON.UZ” MChJ (O‘zbekiston), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalar markazi (O‘zbekiston) va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti (O‘zbekiston)da olib

borilmoqda.

Dunyoda simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash usullari va algoritmlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda, bu tadqiqotlarda simmetrik shifrlash algortimlarini kriptotahlil usullariga baholashda va ularning chiziqsiz akslantirishlarini yaratishda umumiy kriptografik talablarga baholash, baholash jarayonida yangi yondashuvlardan foydalanish, ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholashda yangi usullarni ishlab chiqish, jumladan, faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarida maxfiy va ochiq kalitlar munosabatlari orqali maxfiy kalitlar va parametrlarni aniqlashga asoslangan usullar va algoritmlarni yaratish, yangi yondashuvlarni qo‘llagan holda faktorlashning usul va algoritmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlar o‘rganilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Axborotning kriptografik himoyasi, simmetrik shifrlash algoritmlarini yaratish, ularni kriptotahlil usullariga baholash bo‘yicha B. Shnayer, K. Shennon, E. Biham, H. Feistel, M. Matsui, J. Daeman, D. Knut, S. Maitra, A. Youssef, N. Tokereva, O. Rothaus, X. Zhang, A. Webster, Y. Liu, L. Brown, V. Parihar, A. Sorkin, X. Zhu, A. Biryukov, M. Dawson, S. Fischer, K. Zamli, N. Siddiqui, M. Spain, C. Carlet, W. Meiyer, W. Stallings, C. Pomerance, J. Ding, M. Kavut, I. Yilmaz, T. Kasami, S. Tavares, Y. Yang, W. Zang, Y. Wang, M. Ahmad, L. Babenko, E. Ishukova, E. Maro kabil olimlar tomonian, turli murakkabliklarga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini ishlab chiqish va ularni baholash bo‘yicha R. Rivest, A. Shamir, L. Adleman, N. Koblitz, M. Pollard, A. Lenstra, R. Leman, J. Dixon, A. Joux, K. Lauter, M. Morrison, C. Pomerance, P. Montgomery kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda P.F.Xasanov, M. Aripov, M. Karimov, S. Ganiev, B. Abduraximov, A. Kabulov, D. Akbarov, X. Xasanov, O. Axmedova, G. Jo‘rayev, D. Kuryazov, G‘. To‘ychiyev, B. Axmedov, A.Sattorov, Z. Xudoyqulov. O. Allanov, M. Berdimorudov, U. Mardiyev kabi tadqiqotchilar tomonidan axborotni himoyalashning kriptografik usullari, xesh funksiyalar, simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlasrini, elektron raqamli imzo algoritmlarini yaratish, kriptobardoshliligini baholashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Kriptotahlil usullari yordamida baholash masalalari bir qator olimlar, jumladan, A. Biryukov, N. Courtois, M. Matsui, M. Pollard, A. Lenstra, R. Leman, J. Dixon, A. Joux, L. Babenko, M. Aripov, B. Abduraximov, G. Jo‘rayev, D. Kuryazov, A.Sattarov, M. Berdimurodov va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan bir qatorda, simmetrik oqimli shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholash va shifrlash kalitlarini aniqlashda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi hamda ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitlarini aniqlashning yangicha yondashuvlari masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining F-OT-2021-248 “Funksional jadvallar

asosida axborotlarni himoyalash uchun xavf-xatarlarni aniqlash, identifikatsiya va bartaraf qilishning intellektual usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihasi va AL-9624115223 “Kriptografiya fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanma yaratish” nomli amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlari xavfsizligini baholash uchun yangi yondashuvlar asosida yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning yangi usulini ishlab chiqish;

simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning yangi usuli asosida algoritm yaratish;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun yangi faktorlash usulini ishlab chiqish;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun yangi faktorlash usuli asosida algoritm yaratish;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlash usulini ishlab chiqish;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning yangi usulini ishlab chiqish va bu usul asosida yaratish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlari olingan.

Tadqiqotning predmetini simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining kriptobardoshligini baholash usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida amaliy kriptografiya va kriptotahlil usullari, sonlar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, qiyosiy taqqoslash va ob’yektga yo‘naltirilgan dasturlash yordamida tajribalar o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

S-box akslantirishlarini baholashda mavjud umumiy kriptografik talablarga qo‘shimcha talab sifatida xizmat qiladigan chiziqsiz akslantirishlarga kirish bitlarining birgalikda kelishlari chiqishda qanday tartibda takrorlanishiga asoslangan holda shifrlash kalitlarini aniqlash imkonini bergan simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholash usuli ishlab chiqilgan;

4×4 o‘lchamli S-box akslantirishlariga mos maxfiy kalitning 75 foizini, ayrim S-boxlar uchun esa 100 foiz aniqlik bilan taxmin qilish imkonini bergan simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholash usuli asosida shifrlash kalitini aniqlash algoritmlari yaratilgan;

sonlarni ko‘paytirishdagi munosabatlar orqali faktorlash imkonini bergan sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan ko‘paytirish amallariga teskari amallar orqali faktorlash usuli ishlab chiqilgan;

$2^{\frac{l}{2}-2}$ xotirani ta’minlash imkoniyati mavjud bo‘lganda l bitli RSA ochiq kalitli shifrlash algoritmining modulini faktorlash imkonini bergan sonlarni

ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslanib ishlab chiqilgan usuli asosida yangi faktorlash algoritmlari yaratilgan;

p va q tub sonlarning qaysi intervallarga tegishli bo‘lishi mumkinligining muvaffaqiyatli taxminlarida maxfiy kalitni aniqlash imkonini bergan faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitni aniqlashning maxfiy va ochiq kalitlar munosabatiga asoslangan kichik razryadli RSA modullarida samarali hisoblangan usul ishlab chiqilgan;

RSA ochiq kalitli shifrlash algoritmining moduli l bit bo‘lganda, $|p-q| \le 2^{\frac{l}{4}}$ shart bajarilganda $\frac{l}{2}$ qadam bilan maxfiy kalitlarni aniqlash imkonini bergan faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlash usuli ishlab chiqilgan va mazkur usul asosida algoritm yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning “Bitlarning birgalikda kelishlari soni” deb nomlangan yangi usuli asosida ishlab chiqilgan baholash algoritmning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan yangi faktorlash usuli asosida faktorlash algoritmining dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning oraliqlarga bo‘lishga asoslangan usuli asosida algoritm ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan natijalarning ishonchliligi undagi matematik mulohazalarning qat’iyligi, o‘tkazilgan sonli tadqiqot natijalari bilan tasdiqlanganligi hamda yangi ishlab chiqilgan usul va algoritmlarni shifrlash algoritmlariga qo‘llash orqali olingan real hamda tajribaviy natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan chiziqsiz akslantirishlarni baholash usulini mazkur turdagi akslantirishlarni ishlab chiqishda, faktorlash muammosiga asoslangan algoritmlarda maxfiy kalit parametrlarini generatsiya qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan usul va algoritmlar uchun yaratilgan dasturiy vositalardan mavjud ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini hamda shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash usullari va algoritmlari” mavzusidagi tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalar asosida:

S-box akslantirishlarini baholashda mavjud umumiy kriptografik talablarga qo‘shimcha talab sifatida xizmat qiladi chiziqsiz akslantirishlarga kirish bitlarining birgalikda kelishlari chiqishda qanday tartibda takrorlanishiga asoslangan holda shifrlash kalitlarini aniqlash imkonini bergan simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholash usulidan JSKY2021098-raqamli “SM4

algoritmini tadqiq etish” nomli loyihada SM4 simmetrik shifrlash algoritmining S-boxi tahlili va baholashda foydalanilgan (Jining Normal Universitetining 15.10.2025 yildagi 20251015-001-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, SM4 algoritmi S-box akslantirishini baholash jarayonida NCOB xossasi asosida chetga chiqishlar aniqlangan, jumladan, kirish bitlarining 0- va 2-tartiblari 1,0 ko‘rinishida bo‘lganda, chiqish bitlarining 0- va 2-tartiblari 0 va 1 qiymatlarida kelishlari soni 10 ta, kirish bitlari 0- va 2-tartiblari 1,0 ko‘rinishida bo‘lganda esa chiqish bitlarining 0- va 2-tartiblari 1 va 1 qiymatlarida kelishlari soni 24 ta ekanligi aniqlangan, natijalar oxirgi raund kalitining mos bitlarini 75% gacha aniqlik bilan taxmin qilish imkonini bergan;

$2^{\frac{l}{2}-2}$ xotirani ta’minlash imkoniyati mavjud bo‘lganda *l* bitli RSA ochiq kalitli shifrlash algoritmining modulini faktorlash imkonini bergan sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslanib ishlab chiqilgan usuldan xorijiy ilmiy jurnallarda (Journal of Machine and Computing, 05(03), 2025, pp.1944-1957; Mesopotamian Journal of CyberSecurity, 5(2), 2025, pp.842-862; Symmetry, 16, 2024, ID 764) Shor algoritmining Qiskit platformasi tomonidan taqdim etilgan simulyatsiya qilingan kvant backendlaridan foydalangan holda keng qamrovli samaradorlik tahlili o‘tkazishda foydalanilgan. Natijada, butun sonlarni faktorlash uchun moslashuvchan va umumiy realizatsiya taklif etilib, unda faktorlanuvchi sonni dinamik kiritish, tasodifiy o‘zaro tub sonlarni tanlash hamda kvant sxemalarni avtomatik shakllantirish imkonini bergan;

chiziqsiz akslantirishlarga kirish bitlarining birgalikda kelishlari chiqishda qanday tartibda takrorlanishiga asoslangan holda shifrlash kalitlarini aniqlash imkonini bergan simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholash usuli va uning asosida yaratilgan shifrlash kalitini aniqlash algoritmlaridan xorijiy ilmiy jurnallarda (Discover Internet of Things, 5, 2025, pp.1-20; Multimedia Tools and Applications, 8, 2024, pp.24859–24886; Mesopotamian Journal of CyberSecurity, 5(2), 2025, pp.842-862) ma’lumotlarni uzatish uchun tezkor va barqaror xavfsizlik tizimini yaratishda, optimal talablar bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish hamda IoT parametrlariga asoslangan va NIST kriptografik standartlariga tayanuvchi matematik bog‘lanish-modelini yaratishda, graf nazariyasiga asoslangan shifrlash va deshifrlash usullaridan foydalanish orqali kriptografik protokollarni rivojlantirishda foydalanilgan Natijada, taklif etilgan usul va algoritmlardan foydalanib ishlab chiqilgan algoritm an’anaviy Trivium usuliga nisbatan ustunligi, shifrlash va deshifrlash vaqtlari 1:24 nisbatda qisqarganligi, bu uni tezkor xavfsizlik talablariga mos qilishi, yengil vaznli IoT infratuzilmalari uchun moslashtirish mumkinligi ko‘rsatilgan hamda Dekart ko‘paytmasi graflari hamda to‘liq bipartit graflardan foydalanish aloqa tizimlarida ma’lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini oshirishga imkon bergan;

chiziqsiz akslantirishlarga kirish bitlarining birgalikda kelishlari chiqishda qanday tartibda takrorlanishiga asoslangan holda shifrlash kalitlarini aniqlash imkonini bergan simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholash usulidan “Elektron raqamli imzo bulutli xizmatini ishlab chiqish” loyihasida raqamli imzo algoritmlarining parametrlarini generatsiya qilishda va

kriptografik algoritmlarning bardoshliligini baholashda foydalanilgan (“UNICON.UZ” Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi ma’suliyati cheklangan jamiyatining 29.01.2026 yildagi 7-2/211-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning oraliqlarga bo‘lishga asoslangan usul kriptografik bardoshli kalitlarni generatsiya qilishda ularni tizimli baholash imkonini bergan, simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning “Bitlarning birgalikda kelishlari soni” deb nomlangan yangi usul kriptografik algoritmlarning bardoshliligini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 43 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 20 ta maqola, shundan, 11 tasi xorijiy (9 ta maqola Scopus bazasiga indekslangan) va 9 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, EHM uchun yaratilgan 7 ta dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi asoslangan. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chet eldagi ilmiy tadqiqotlarning qisqacha ma’lumoti va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Zamonaviy kriptografik algoritmlarni baholash usullari**” deb nomlangan bo‘lib, zamonaviy kriptografik tizimlarning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etuvchi simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash usullari keng tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida har ikki turdagi shifrlash tizimlarining matematik asoslari, ularning xavfsizlik mezonlari hamda baholash metodologiyalari o‘rganilib, ularning afzallik va cheklovlari ilmiy nuqtayi nazardan umumlashtirilgan. Bobning birinchi paragrafi **“Simmetrik shifrlash algoritmlari va ularning chiziqsiz akslantirishlarini baholash usullari”** deb nomlangan bo‘lib, unda simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini tahlil qilish usullari, jumladan, chiziqlilik darajasi, algebraik

immunitet, differensial va chiziqli kriptotahlilga bardoshlilik, hamda S-box chiziqsizligi mezonlari asosida baholash mexanizmlari ko‘rib chiqildi. Ushbu usullar algoritmlarning ichki blok tuzilmasi, raundlar soni, va kalit uzunligi bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlanib, ularning o‘zaro ta’siri matematik jihatdan izohlangan.

Bobning ikkinchi paragrafi “Ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash usullari” deb nomlangan bo‘lib, unda ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining xavfsizlik baholash usullari ko‘rib chiqilib, ularning matematik negizi bo‘lgan faktorlash, diskret logarifm, hamda elliptik egri chiziq muammolari tahlil qilindi. Ayniqsa, RSA, El-Gamal, va ECC algoritmlarining xavfsizligi asosida yotuvchi matematik masalalarning hisoblash murakkabligi va ularning yechilishiga ta’sir etuvchi zamonaviy algoritmik yondashuvlar (Pollard rho, Quadratic Sieve, ECM, GNFS) o‘rganildi. Shuningdek, kvant hisoblash modellari paydo bo‘lishi bilan bu algoritmlarning xavfsizlik darajasi qayta ko‘rib chiqilayotgani ta’kidlandi.

Chekli maydondagi diskret logarifmlash va elliptik egri nuqtasining tartibini aniqlash bo‘yicha ayrim asosiy algoritmlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri faktorlash muammosiga yoki faktorlash usullarining printsipiga tayanganligi sababli, faktorlash usullari asosiy e’tiborda bo‘lishi mantiqiy. Faktorlash metrikalari (smoothness, subproduct daraxtlar, L-notationdagi murakkablik) DLP/EECh-tartib metodlarining samaradorligini belgilashda markaziy rol o‘ynaydi, shuning uchun avvalo faktorlash algoritmlari (Pollard-rho, ECM, QS, NFS va boshqalar) bilan chuqur tanishish ekvivalent yoki undan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli mazkur bo‘limda faktorlash usullari batafsil yoritildi, DLP va EECh-tartib metodlari esa ularning faktorlashga bog‘liqligi nuqtai nazaridan qisqacha ta’riflangan.

Bobning uchinchi paragrafi “Simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritrmlarini baholashning dolzarb muammolari” deb nomlangan bo‘lib, unda simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholashdagi dolzarb muammolar tahlil qilingan. Xususan quyidagilar aniqlangan: mavjud baholash usullari ko‘pincha nazariy mezonlar bilan cheklanib, amaliy samaradorlikni to‘liq aks ettirmasligi, shifrlash algoritmlarining parametrik optimallashtirilgan modellarini yaratish imkoniyati yetarli o‘rganilmaganligi, mashinaviy o‘qitish va neyron tarmoqlar asosida baholash yondashuvlari hali to‘liq tizimlashtirilmaganligi. Shuningdek, simmetrik algoritmlar uchun chiziqsiz akslantirishlarni tahlil qilish va ochiq kalitli algoritmlar uchun faktorlash muammosiga asoslangan baholash usullarini takomillashtirish zaruriyati ilmiy asoslangan.

1-bob natijalari shuni ko‘rsatganki, mavjud baholash yondashuvlari kriptotizimlarning faqat alohida xususiyatlarini o‘lchashga qaratilgan bo‘lib, integrallashgan, adaptiv va intellektual yondashuvlarga ehtiyoj yuqori. Shu sababli, keyingi boblarda ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida yangi baholash usullari, chiziqsiz akslantirishni tahlil qilishning yangi usuli va algoritmlari, mashinali o‘qitish usullari yordamida shifrlash kalitlarini tasniflash usuli va algoritmi hamda faktorlash muammosi asosida qurilgan ochiq kalitli shifrlash

algoritmlarining maxfiy kalitlarini aniqlash algoritmlari ishlab chiqishga qaratilgan usullar va algoritmlar taklif etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning BBKS usuli va algoritmi**" deb nomlangan bo'lib, unda simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholash uchun yondashuvlar, chiziqsiz akslantirishlari uchun qo'yilgan umumiy xarakteristik talablar o'rganilgan, ularga qo'shimcha akslantirishdagi kirish va chiqish bitlarining birgalikda paydo bo'lishlarining statistik xarakteristikalariga asoslangan "Bitlarning birgalikda kelishlari soni" deb nomlangan usul taklif qilingan va ushbu usul asosida algoritm ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan algoritm yordamida Magma shifrlash algoritmining 8 ta chiziqsiz akslantirish jadvalllari baholangan.

Bobning birinchi paragrafi "Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning mavjud yondashuvlari" deb nomlangan bo'lib, unda simmetrik shifrlash algoritmlarin baholashning mavjud yondashuvlari va chiziqsiz akslantirishlarning xarakteristikalarini tahlil qilish mezonlari o'rganilgan. Simmetrik shifrlash algoritmlari har qanday kriptografik almashtirishlarini $GF(2^n)$ fazodagi $X = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ ni, boshqa $GF(2^m)$ fazodagi $Y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ ga akslantirish sifatida qarab, ushbu akslantirishni bul funksiyalar orqali quyidagicha ifodalash mumkin: $= \varphi(X)$: $GF(2^n) \to GF(2^m), X = (x_1, x_2, \dots, x_n), Y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$.

Akslantirish esa $\varphi(X) = \{f_1(X), f_1(X), \dots, f_m(X)\}$ – vektor bul funksiyalar (komponentalar) ko'rinishida tasvirlanadi. Bu yerda $f_i, x_i, y_i \in GF(2)$ $(f_i, x_i, y_i = \{0,1\}$. Demak, blokli simmetrik shifrlash algoritmidagi biror kriptografik almashtirishni baholash jarayonida unga matematik model bo'lgan, berilgan bul funksiya xossalarini o'rganish yetarli hisoblanadi.

Mazkur keltirilgan tushunchalardan ma'lumki, blokli simmetrik shifrlash algoritmi almashtirishlarining yuqorida keltirilgan barcha xossalari va sonli xarakteristikalari ushbu shifrlash algoritmining kriptobardoshliligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bobning ikkinchi paragrafi "Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli" deb nomlangan. Mazkur bo'limda S-box akslantirishining avval mavjud bo'lgan umumiy xarakteristikalariga qo'shimcha ravishda, kiruvchi va chiquvchi bitlarning birgalikda paydo bo'lish ehtimolligini o'rganishga asoslangan yondashuv taklif qilingan. Bu yondashuvlar yordamida S-box ichidagi bitlar orasidagi bog'liqlik darajasi aniqlanadi.

BBKS usulining mazmunini quyidagi 1-ta'rif bilan ifodalash mumkin.

1-ta'rif. Faraz qilaylik, S -o'lchami $n \times n$ bo'lgan S-box bo'lib, kiruvchi qiymat $a \in \{0,1\}^n$ ni, chiquvchi qiymat esa $b = S[a] \in \{0,1\}^n$ ni ifodalaydi. U holda bitlarning birgalikda paydo bo'lishlari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$c_{p,q}^{i,j}[k,l] = \#\{b_k = p; b_l = q; a_k = i; a_l = j\}$$

Bu yerda $k = 0, \dots, n-2; l = k+1, \dots, n-1$, $p = 0,1;\ q = 0,1;$ $i = 0,1; j = 0,1.$

BBKS usuli - S-box chiziqsiz akslantirishlarini baholash bosqichlari

1-bosqich. Kirish ma'lumotlarini tayyorlash. Olchami $n \times n$ boilgan S-box jadvali tanlanadi. S-boxdagi har bir kinuvchi qiymat $a \in \{0,1\}^n$ va unga mos chiquvchi qiymat $b = S[a] \in \{0,1\}^n$ aniqlanadi. Barcha qiymatlar ikkilk (binary) ko'rinishda ifodalanadi.

2-bosqich. Bit juftliklarini aniqlash. Har bir kiruvchi qiymatdagi bitlar juftligi (a_k, a_l) uchun barcha mumkin bo'lgan $(i,j) \in \{0,1\}^2$ kombinatsiyalar olinadi. Shunga mos ravishda chiquvchi qiymatdagi bitlar juftigi (b_k, b_l) uchun $(p,q) \in \{0,1\}^2$ qiymatlar tanlanadi. Bu jarayon barcha k, l indeks juftliklari uchun (ya'ni $= 0, \dots, n-2; l = k+1, \dots, n-1$) amalga oshiriladi.

3-bosqich. Birgalikda paydo bo'lishlar sonini hisoblash. Har bir bit juftligi kombinatsiyasi uchun quyidagi miqdor hisoblanadi:

$$c_{(p,q)]}^{(i,j)}[k,l] = \#\{b_k = p; b_l = q; a_k = i; a_l = j\}$$

Bu kattalik kirishdagi $(a_k, a_l) = (i,j)$ juftliklari chiqishdagi $(b_k, b_l) = (p,q)$ juftliklariga qanchalik ko'p mos tushishini bildiradi.

4-bosqich. Ehtimolliklarni hisoblash. Har bir qiymat uchun ehtimollik aniqlanadi:

$$P_{(p,q)}^{[i,j]}[k,l] = \frac{c_{(p,j)}^{(i,j)}[k,l]}{2^u}$$

Bu ifoda kirish-chiqish bitlari orasidagi statistik bogliqlik darajasini ehtimollik shaklida ifodalaydi.

5-bosqich. Natijalarni tahlil qilish. Agar barcha $P_{(pq)}^{(i,j)}[k,l]$ qiymatlar bir-biriga yaqin bo'lsa, demak S-box ichidagi bitlar mustaqil va teng taqsimlangan, bu esa yuqori chiziqsizlik va bardoshlilikni bildiradi. Aksincha, ayrim juftliklarda $P_{(p,q)}^{(i,j)}[k,l]$ qiymati juda katta yoki kichik bo'lsa, bu bitlararo o'zaro bog'liqlik mavjudligini va S-boxning kriptoanalitik zaifligini ko'rsatadi.

Natijalar S-boxni takomillashtirish, yangi S-baxlarni ishlab chiqish yoki mavjudlarini optimallashtirishda qo'llanadi.

2.1-Lemma (BBKS usulida bit-juftliklarning teng taqsimlanish xossasi). Faraz qilaylik, $S: \{0,1\}^n \to \{0,1\}^n -$ S-box. Agar har bir kirish qiymat $a \in \{0,1\}^n$ uchun chiqish qiymat $b = S[a]$ mavjud bo'lib, barcha bit juftliklar (a_k, a_l) va (b_k, b_l) kombinatsiyalari teng chastotada uchrasa, ya'ni

$$\sum_{a \in \{0,1\}^n} [a_k = i, a_l = j, b_k = p, b_l = q] = \frac{2^{n-2}}{4}$$

u holda shu juftliklar bo'yicha taqsimot bir xil hisoblanadi.

2.1-Teorema (BBKS usulida bitlarning mustaqillik sharti). Agar 2.1-lemma sharti bajarilsa, ya'ni har bir (i, j, p, q, k, l) kombinatsiya uchun

$$c_{p,q}^{i,j}[k,l] = \frac{2^{n-2}}{4}$$

bo'lsa, u holda S-boxdagi k-va l-tartibli bitlar o'zaro statistik jihatdan mustaqil bo'ladi.

Bu $4x4$ o‘lchamli Magma shifrlash algoritmining 8 - S-boxida a kirishning 1-tartibli biti 0 ga va 3-tartibli biti 1 ga teng bo‘lganda, b chiqishning 1-tartibli biti 1 ga va 3-tartibli biti 1 ga teng bo‘lishlari soni 3 ga teng ekanligini bildiradi (1-jadval).

1-jadval.

Magma algoritmining 8-S-box jadvalida bitlarning birgalikda kelishlari (BBKS) soni

	0,0				**0,1**				**1,0**				**1,1**			
	0,0	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**
0,1	1	1	0	2	2	1	1	0	0	2	1	1	1	0	2	1
0,2	**3**	1	0	0	0	1	2	1	1	0	2	1	0	2	0	2
0,3	1	1	2	0	0	**3**	0	1	1	0	1	2	2	0	1	1
1,2	1	0	1	2	0	1	1	2	2	0	2	0	1	**3**	0	0
1,3	1	1	2	0	0	0	1	**3**	2	2	0	0	1	1	1	1
2,3	2	2	0	0	1	1	0	2	1	0	2	1	0	1	2	1

BBKS usuli S-boxlarning chiziqsiz akslantirish xossalarini tahlil qilishda yangi, bit darajasidagi yondashuvni taklif etadi. An’anaviy algebraik, differensial yoki chiziqli tahlil usullari ko‘proq S-boxning umumiy tuzilishiga qaratilgan bo‘lsa, BBKS yondashuvi kiruvchi va chiquvchi bitlar o‘rtasidagi birgalikda paydo bo‘lish ehtimolligini baholash orqali ichki bog‘liqlik darajasini aniqlaydi. Bu esa S-boxning statistik mustaqilligi va tarqatish xususiyati haqida chuqurroq ma’lumot beradi. Agar bitlararo bog‘liqlik minimal darajada bo‘lsa, bunday S-box nisbatan yuqori bardoshlilikni namoyon etadi.

Bobning uchinchi paragrafi “Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 1-algoritm” deb nomlangan va unda simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 1-algoritm tasvirlangan.

1-algoritm. Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 1-algoritm

1-qadam. Tasodifiy kirish qiymatlari uchun bir qancha shifrlash jarayoni amalga oshiriladi. Jarayon S-boxga mos bitlar uchun L_n, R_n qabul qilishi mumkin bo‘lgan barcha variantlari bir martadan qatnashadigan, ya’ni qiymatlari takrorlanmaydigan massiv hosil bo‘lguncha davom ettiriladi. Bunday massivlar shifrlash jarayoni L_{n-1} ning bir xil qiymatida amalga oshirilganda hosil bo‘ladi.

2-qadam. Hosil bo‘lgan R_n massivni S-box sifatida e’lon qilib ushbu S-boxdagi bitlarning birgalikda kelishlari soni aniqlanadi.

3-qadam. Shifrlash jarayonida foydalanilgan S-box jadvalidagi bitlarning birgalikda kelishlari soni ifodalangan jadvaldagi BBKS ning mos qiymatlarini va R_n massiv uchun aniqlangan BBKS qiymatlarini xor amali bilan qo‘shish orqali L_{n-1} ning qiymati aniqlanadi.

4-qadam. Mavjud L_{n-1}, L_n, R_n qiymatlardan foydalanib $L_{n-1} \oplus S(L_n \oplus K_n) = R_n$ ifoda orqali K_n ning qiymati aniqlanadi.

5-qadam. Hosil qilingan K_n ning qiymati taxmin qilingan n-raund kaliti sifatida e’lon qilinadi.

2-jadval.

R_n massiv qiymatlaridan tuzilgan S-box jadvalida bitlarning birgalikda paydo bo‘lishlari soni

	0,0				0,1				1,0				1,1			
	0,0	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**
0,1	2	1	1	0	1	1	1	1	1	0	2	1	0	2	1	1
0,2	2	0	1	1	1	2	0	1	1	2	1	0	0	0	1	3
0,3	1	1	2	0	1	2	1	0	0	1	0	3	2	0	1	1
1,2	3	1	0	0	0	2	0	2	1	1	1	1	0	1	2	1
1,3	1	1	1	1	2	2	0	0	1	0	0	3	1	1	2	0
2,3	1	1	1	1	2	1	1	0	0	2	1	1	0	0	2	2

1-qadamdagi shartlar asosida amalga oshirilgan hisoblashlar natijasida L_n=[0,1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15] va R_n =[8, 1, 6, 3, 12, 0, 5, 14, 9, 2, 15, 10, 7, 4, 13, 11] massivlar hosil bo‘ldi. 2-qadamga asosan R_n massivni S-box sifatida e’lon qilib, ushbu S-boxdagi bitlarning birgalikda paydo bo‘lishlari soni aniqlandi.

4-jadval.

Birgalikda kelishlari soni jadvallaridagi mos qiymatlardan foydalanib L_{n-1} ning qiymatini aniqlash

Bitlarning o‘rni	**S-boxdagi qiymatlari**	**R_n massivdagi mos qiymat**	**Mos qiymatlarning XOR natijasi**	**0-bit**	**1-bit**	**2-bit**	**3-bit**
0,2	0,0	1,1	1,1	1	-	1	-
0,3	0,1	1,1	1,0	1	-	-	0
1,2	0,1	0,0	0,1	-	0	1	-
1,3	1,1	1,1	0,0	-	0	-	0
0,2	0,1	1,0	1,1	1	-	1	-
0,3	1,1	0,1	1,0	1	-	-	0
1,2	0,0	0,1	0,1	-	0	1	-
1,3	1,0	0,0	1,0	-	1	-	0
L_{n-1} ning hosil qilingan qiymati:				**1**	**0**	**1**	**0**

3-qadamga asosan shifrlash jarayonida foydalanilgan S-box jadvalidagi bitlarning birgalikda paydo bo‘lishlari soni ifodalangan {0,2},{0,3},{1,2},{1,3} chiquvchi bitlarga mos keluvchi 2-jadvaldagi qiymatlardan foydalanib L_{n-1} ning qiymati aniqlanadi (3-jadval).

4-qadamga ko‘ra L_{n-1} ning qiymati aniqlangandan so‘ng K_n ning qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$L_{n-1} \oplus S(L_n \oplus K_n) = R_n \qquad (1)$$

Ushbu ifoda L_n massivning ixtiyoriy qiymatlarida va unga mos R_n massiv qiymatlarida o‘rinli hisoblanadi.

Agar $L_n = 0_{10} = 0000_2$ bo‘lsa unga mos R_n massiv qiymati $R_n = 8_{10} = 1000_2$ bo‘ladi. Bu qiymatlarni aniqlangan $L_{n-1} = 10_{10} = 1010_2$ qiymatni (1) ifodaga qo‘yish orqali $1010 \oplus S(0000 \oplus K_n) = 1000$ ifodaga ega bo‘lish mumkin. Bundan esa $S(0000 \oplus K_n) = 0010$ ni va 1-jadval yordamida $K_n = 1111$ kalit qiymati aniqlandi.

Bobning to‘rtinchi paragrafi “Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 2-algoritm” deb nomlangan va unda simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 2-algoritm tasvirlangan.

2-algoritm. Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 2-algoritm

1-qadam. R_n massivning barcha qiymatlari bir xil (masalan, barcha qiymatlar 0 yoki 1) qiymatni qabul qilganda L_n ning mumkin bo‘lgan barcha qiymatlari hosil bo‘lguncha shifrlash jarayoni amalga oshiriladi.

2-qadam. Hosil bo‘lgan L_n massivni S-box sifatida e’lon qilib ushbu S-boxdagi bitlarning birgalikda kelishlari soni aniqlanadi.

3-qadam. Shifrlash jarayonida foydalanilgan S-box jadvaliga teskari S-box_inv uchun bitlarning birgalikda kelishlari soni jadvali shakllantiriladi.

4-qadam. Shakllantirilgan S-box_inv uchun va L_n massiv uchun shakllantirilgan BBKS jadvallarini mos qo‘yish, ya’ni mos bitlarini xor amali orqali qo‘shish yo‘li bilan K_n ning qiymati aniqlanadi.

5-qadam. Hosil qilingan K_n ning qiymati taxmin qilingan n-raund kaliti sifatida e’lon qilinadi.

L_n massivining bitlarining birgalikda paydo bo‘lishlari soni (6-jadval) S-box_inv jadvalining bitlarining birgalikda paydo bo‘lishlari soni (5-jadval) bilan mos qo‘yish orqali shifrlash jarayonidagi kalit aniqlanadi (7-jadval).

5-jadval.

8-S-box jadvaliga teskari S-box_inv jadvalida bitlarning birgalikda paydo bo‘lishlari soni

	0,0				**0,1**				**1,0**				**1,1**			
	0,0	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**
0,1	1	2	0	1	1	1	2	0	0	1	1	2	2	0	1	1
0,2	3	0	1	0	1	1	0	2	0	2	2	0	0	1	1	2
0,3	1	0	1	2	1	3	0	0	2	0	1	1	0	1	2	1
1,2	1	0	2	1	0	1	0	3	1	1	2	0	2	2	0	0
1,3	1	0	2	1	1	0	2	1	2	1	1	0	0	3	0	1
2,3	2	1	1	0	2	1	0	1	0	0	2	2	0	2	1	1

6-jadval.

L_n massivi bitlarning birgalikda paydo bo‘lishlari soni

	0,0				**0,1**				**1,0**				**1,1**			
	0,0	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**	**0,0**	**0,1**	**1,0**	**1,1**
0,1	1	0	2	1	0	2	1	1	2	1	1	0	1	1	1	1
0,2	0	1	0	3	2	0	1	1	0	2	2	0	2	1	0	1
0,3	2	1	0	1	0	0	3	1	1	1	0	2	1	2	1	0
1,2	1	2	0	1	3	0	1	0	0	2	1	1	0	1	1	2
1,3	1	2	0	1	1	2	0	1	1	1	1	1	1	0	3	1
2,3	0	1	1	2	1	0	1	2	2	1	0	1	1	1	2	0

7-jadval.

Birgalikda kelishlari soni jadvallaridagi mos qiymatlardan foydalanib K_n ning qiymatini aniqlash

Bitlarning o‘rni	S_inv-boxdagi qiymatlari	L_n massivdagi mos qiymat	Mos qiymatlarning XOR natijasi	0-bit	1-bit	2-bit	3-bit
0,2	0,0	1,1	1,1	1	-	1	-
0,3	0,1	1,0	1,1	1	-	-	1
1,2	1,1	0,0	1,1	-	1	1	-
1,3	0,1	1,0	1,1	-	1	-	1
0,2	1,0	0,1	1,1	1	-	1	-
0,3	0,0	1,1	1,1	1	-	-	1
1,2	0,1	1,0	1,1	-	1	1	-
1,3	1,1	1,1	0,0	-	0	-	0
K_n ning hosil qilingan qiymati:				**1**	**1**	**1**	**1**

$K_n=1111_2$ shifrlash jarayonida foydalanilgan kalit bitlari ekanligini aniqlash jarayoni murakkab emas.



1-rasm. Simmetrik shifrlash algoritmlarining chiziqsiz akslantirishini baholash uchun BBKS usuli asosida ishlab chiqilgan 1- va 2- algoritmlarning blok sxemasi

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirish qoidasi asosida faktorlash usuli va algoritmi” deb nomlangan. Ushbu bobda, sonlarni

ko‘paytirishning tezkor usullari o‘rganilgan va faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan yangi KATAOF faktorlash usuli ishlab chiqilgan. faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan yangi KATAOF faktorlash usuli asosida ikkita KATAOF-1 va KATAOF-2 faktorlash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Bobning birinchi paragrafi “Sonlarni ko‘paytirishning tezkor usullari va ularning qo‘llanilishi” deb nomlangan. Sonlarni ko‘paytirish arifmetikaning eng muhim amallaridan biridir. Katta sonlar bilan ishlaganda, ayniqsa kriptografiya, raqamli signalni qayta ishlash, kompyuter grafikasi va algoritmik hisoblashlarda ko‘paytirish tezligi hisoblash samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, matematika tarixi davomida ko‘paytirishni tezlashtiruvchi ko‘plab matematik usullar ishlab chiqilgan. Mazkur paragrafda Karatsuba, Toom-Cook, Schonhage-Strassen, Harvey & van der Hoeven, Booth kodlash, Wallace va Dadda daraxtlari, GMP/MPIR kabi matematik usullar o‘rganildi.

Sonlarni ko‘paytirishning turli tezkor algoritmlari - Karatsuba, Toom-Cook, Schonhage-Strassen va Furye usullari - matematik jihatdan faqat arifmetik amallarni tezlashtirish uchun emas, balki kriptoanalitik jarayonlarda, xususan, faktorlash (factorization) masalalarida ham nazariy ahamiyat kasb etadi. Chunki faktorlashning markazida N=p×q kabi ko‘paytma yotadi, bu esa teskari yo‘nalishda, ya’ni ko‘paytmani tahlil qilib uning bo‘luvchilarini topishda, ko‘paytirishning tuzilmasi va xossalarini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Natijada, tezkor ko‘paytirish usullari faqat hisoblashni optimallashtiruvchi matematik vosita emas, balki ularni faktorlash va kriptoanaliz kabi murakkab masalalarni yechishda yangi nazariy asos yaratish imkonini beruvchi yo‘nalish sifatida ham qarash mumkin. Shu sababli, raqamlarni ko‘paytirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish - zamonaviy kriptotizimlarning ishonchliligini baholash va yangi tezkor faktorlash modellarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Bobning ikkinchi paragrafi “Sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan KATAOF faktorlash usuli” deb nomlangan. Dissertatsiya ishining ushbu paragrafida sonlar va ko‘phadlarni ko‘paytirishga asoslangan Tom-Kuk algoritmi qadamlari yordamida faktorizatsiya muammosini yechish imkoniyati o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, faktorizatsiya jarayonini samarali amalga oshirishga yo‘naltirilgan usul va ushbu usul asosida ishlab chiqilgan algoritmlarning qo‘llanilishi yoritilgan.

Sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan KATAOF faktorlash usuli

Kirish ma’lumotlari:

N – factorlanishi zarur bo‘lgan son;

k - sonning bit uzunligi;

l - har bir qismning bit uzunligi;

$m = n/l$ - hosil bo‘ladigan qismlar soni.

1-qadam. Sonni qismlarga ajratish N soni $m = n/l$ ta l-bitli qismlarga ajratiladi:

$$N = [n_{m-1}, n_{m-2}, \dots, n_1, n_0]$$

bu yerda har bir $n_i - N$ sonining l-bitli qismi.

2-qadam. Dastlabki nomzod juftliklarni aniqlash

Izlanayotgan tub sonlar p va q uchun:

$$p = [p_{k/l-1}, \dots, p_1, p_0], q = [q_{k/l-1}, \dots, q_1, q_0]$$

Har bir n_i qiymat uchun ko‘paytirish qoidasiga teskari amallar yordamida mos (p_i, q_i) nomzod juftliklar aniqlanadi.

3-qadam. Nomzod juftliklarni kengaytirish. Aniqlangan boshlang‘ich p_0, q_0 juftliklaridan boshlab, rekursiv tarzda quyidagi juftliklar hosil qilinadi:

$$(p^i, q^i), i = 0,1,2, \dots, 2^{k-2} - 1.$$

Natijada 2^{k-2} ta potensial juftliklar to‘plami hosil qilinadi.

4-qadam. Tenglikni tekshirish. Har bir nomzod juftlik uchun quyidagi shart tekshiriladi:

$$p^i \times q^i = N.$$

Agar tenglik bajarilmasa, keyingi juftlik uchun tekshiruv davom ettiriladi.

5-qadam. Tugatish. Agar ma’lum bir i uchun $p^i \times q^i = N$ tenglik qanoatlantirilsa, unda: $p = p^i, q = q^i$ deb olinadi va ular izlanayotgan tub sonlar deb e'lon qilinadi. Algoritm ishini yakunlaydi.

Chiquvchi qiymatlar: $(p, q) - N$ sonining tub bo‘luvchilari deb e’lon qilinadi.

Bobning uchinchi paragrafi “Sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan KATAOF faktorlash algoritmlari” deb nomlangan. 3.2-paragrafda taklif qilingan sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan faktorlash usuli asosida ikkita k bitli p va q tub sonlar ko‘paytmasi bo‘lgan N sonini faktorlash algoritmini quyidagi ko‘rinishida tasvirlash mumkin.

Sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan faktorlash usuli asosida ishlab chiqilgan KATAOF-1 algoritmining blok sxema ko‘rinishi 2-rasmda keltirilgan.

Sonlarni ko‘paytirishning Tom-Cook usuliga asoslangan faktorlash usuli asosida ishlab chiqilgan KATAOF-2 algoritmining blok sxema ko‘rinishi 3-rasmda keltirilgan.

Tom-Cook ko‘paytirish usuliga asoslangan ushbu faktorizatsiya usuli katta sonlarni tahlil qilishda yangi imkoniyatlar ochadi. Bu yondashuv katta razryadli kriptografik modullarni faktorlash, RSA xavfsizligini baholash, va matematik kriptoanaliz sohalarida amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan istiqbolli usullardan biridir.

Mazkur bobda faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitni aniqlashning maxfiy va ochiq kalitlar munosabatiga asoslangan kichik razryadli RSA modullarida samarali hisoblangan MOKM usuli taklif qilingan. Shuningdek, faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning butun kavdrat ildizlar kavadratining yaqinlashuvi usuli (BKIKYU) deb nomlangan maxfiy kalitlarni aniqlash usuli ishlab chiqilgan va faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning BKIKYU usuli asosida

algoritm ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun kalitlar munosabatiga asoslangan usullar va algoritm” deb nomlangan.

Bobning birinchi paragrafi “Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy va ochiq kalitlar munosabatiga asoslangan MOKM usuli” deb nomlangan. RSA shifrlash algoritmida berilgan ochiq kalit e va $N = p * q$ sonlari yordamida $p, q \in (a, b)$ $\varphi(N) = (p-1) * (q-1)$ $(p, q \in (a, b))$ maxfiy kalitni aniqlashning MOKM usulining umumiy tavsifi quyida keltirilgan.

4.1-usul. RSA shifrlash algoritmining maxfiy kalitini aniqlashning MOKM usuli.

1. (a, b) intervalni kichik qismlarga ajratiladi;

2. p, q sonlari ajratilgan qismlarning qaysi biriga tegishli bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi;

3. 2-qadamda aniqlangan qismlar uchun $r \in [\frac{2\cdot(\left[\frac{N''}{2}\right]-[\sqrt{N''}])-\varphi''(N'')}{2}, \frac{2\cdot(\left[\frac{N'}{2}\right]-[\sqrt{N'}])-\varphi'(N')}{2}]$, $N' = p_{min} \cdot q_{max}$, $\varphi'(N') = (p_{min}-1)\cdot(q_{max}-1), N'' = p_{min} \cdot q_{min}$, $\varphi''(N'') = (p_{min}-1)\cdot(q_{min}-1)$ p_{min}, q_{max} oraliqlar hisoblanadi;

4. r ning 3 – qadamda aniqlangan oraliqdagi qiymatlari yordamida hisoblangan $\varphi(N) = 2 \cdot (\left[\frac{N}{2}\right] - \left[\sqrt{N}\right] - r)$ uchun $m^e \ mod \ n = m^{e+\varphi(N)} \ mod \ N$ tenglik o‘rinli bo‘lsa hisoblashlar to‘xtatiladi;

5. 4-qadamdagi tenglikni qanaoatlantiruvchi $\varphi(N)$ izlanayotgan maxfiy kalit sifatida e’lon qilinadi.

Keltirilgan usul kichik razryadli tub sonlar p va q uchun samarali ishlashini tajribaviy natijalar orqali tasdiqlaydi. Bunda algoritmning mohiyati $N = p \times q$ modulga asoslangan holda, $\varphi(N)$ funksiyasining qiymatini bilvosita aniqlash va mos holda shifrlash-deshifrlash munosabatlarini tekshirishga qaratilgan.

Keltirilgan usulning samaradorligi (a, b) oraliqni imkoni boricha kichik oraliqlarga ajratish va izlanayotgan p va q sonlarni qaysi oraliqda ekanligini aniqlashga bog‘liq. (a, b) oraliqni kichik oraliqlarga bo‘lish va izlanayotgan p va q sonlarni qaysi oraliqda ekanligini aniqlashning optimal usuli aniqlansa, yoki r sonining N soniga qanday bog‘liqligi aniqlansa mazkur usulning samaradorligi anchagina ortadi.

Bobning ikkinchi paragrafi “Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitlarini aniqlashning BKIKYU usuli” deb nomlangan. Ushbu paragrafda RSA algoritmining xavfsizlik asosini tashkil etuvchi modulning faktorlash murakkabligi o‘rganiladi. Modul $N = p * q$ uzunligi l bit bo‘lganda, agar tub bo‘luvchilar orasidagi farq $|p-q| \leq 2^{l/4}$ shartni qanoatlantirsa, modulni faktorlash odatdagi usullarga nisbatan ancha tezroq amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Taklif etilgan BKIKYU usulida qidiruv jarayoni $l/2$ qadam bilan chegaralanadi va bu modulni qisqa vaqt ichida faktorlash imkonini beradi.

4.2-Teorema (RSA modulida $\varphi(N)$ va N o‘rtasidagi kvadrat ildizlar yaqinligi). Berilgan RSA moduli $N = p \cdot q$, bu yerda p va q - o‘zaro turli tub sonlar, $p > q$ bo‘lganda, $\sqrt{N} - 2 < \sqrt{\varphi(N)} < \sqrt{N} - 1$, butun qism jihatidan $\left\lfloor\sqrt{\varphi(N)}\right\rfloor = \left\lfloor\sqrt{N}\right\rfloor - 1$ yoki $\left\lfloor\sqrt{\varphi(N)}\right\rfloor = \left\lfloor\sqrt{N}\right\rfloor - 2$, yaqinlik munosabati o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu matematik asosga ko‘ra Butun kvadrat ildizlar kvadratining yaqinlashishi usuli (BKIKYU) usuli taklif qilindi. BKIKYU usulining maxfiy kalitni izlash bosqichlari quyida keltirilgan.

1-bosqich. Dastlabki qiymatlar tayyorlanadi. Berilgan N son uchun quyidagilar hisoblanadi:

$$r = \lfloor\sqrt{N}\rfloor^2, r_p = \lfloor\sqrt{N} - 1\rfloor^2$$

Bu qiymatlar N ga yaqin bo‘lgan ikkita kvadrat son sifatida olinadi.

2-bosqich. $\varphi(N)$ ning taxminiy qiymatini aniqlash. Har bir iteratsiyada o‘rtacha qiymat:

$$t = \sqrt{r \cdot r_p}$$

hisoblanadi. Ushbu t qiymati $\varphi(N)$ ning yaqinlashuvchi bahosi sifatida olinadi.

3-bosqich. Diskriminantni hisoblash. Taxminiy φ(N) asosida:

$$s = N - \varphi(N) + 1, D = s^2 - 4N$$

qiymatlar topiladi.

4-bosqich. Diskriminant holatini tahlil qilish. Agar $D < 0$, diskriminant manfiy bo‘lsa, bu holda haqiqiy ildiz mavjud emas; yuqori chegara t bilan almashtiriladi va $\left|r - r_p\right| \leq 2$ shart bajarilmagan bo‘lsa 2-bosqichga qaytiladi aks holda 5-bosqichga o‘tiladi. Agar $D \geq 0$, diskriminantning kvadrat ildizi olinadi: $\sqrt{D}$ va undan quyidagicha p hamda q qiymatlar aniqlanadi:

$$p = \frac{s + \left\lfloor\sqrt{D}\right\rfloor}{2}, q = s - p$$

Agar $p \cdot q = N$ sharti bajarilsa, jarayon yakunlanadi. Aks holda kichik chegara qiymati t bilan almashtiriladi va $\left|r - r_p\right| \leq 2$ shart bajarilmagan bo‘lsa 2-bosqichga qaytiladi.

5-bosqich. Usul yakunida oxirgi hisoblangan t qiymati qaytariladi. Yakuniy $\varphi(N)$ qiymati quyidagi oraliqdan qidiriladi:

$$\varphi(N) \in \{t - 1, t, t + 1\}$$

Ushbu usul yordamida:

- φ(N) ning yaqin qiymati topiladi;
- shundan so‘ng p va q aniqlanadi;
- natijada RSA algoritmining maxfiy kaliti $d = e^{-1} \bmod \varphi(N)$ hisoblanishi mumkin bo‘ladi.

Ushbu usulning samaradorligi p va q qiymatlarining bir-biriga nisbatan yaqin bo‘lgan holatlarida yuqori bo‘ladi. Agar $p \approx q$ bo‘lsa, $\varphi(N)$ qiymati N ga nisbatan kvadrat ildiz yaqinlashuvi orqali tezda aniqlanadi.

Bobning uchinchi paragrafi “Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitlarini aniqlashning BKIKYU

algoritmi” deb nomlangan. 4.1-bo‘limda keltirilgan BKIKYU usuli asosida Butun kvadrat ildizlar yaqinlashishi usuli (BKIKYU) algoritmi ham ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan BKIKYU algoritmining asosiy maqsadi – RSA moduli bo‘lgan $N = p \cdot q$ sonini uning tub bo‘luvchilari p va q ga ajratishdir. Algoritm ikkita qism algoritmga ajratiladi. Dastlab *BKIKYU(N)* algoritmi $\varphi(N)$ (Eyler funksiyasi) ning taxminiy qiymatini topishga, keyingi *find_pq_from_phi_candidates(N, t)* algoritmi esa shu qiymat asosida p va q ni aniqlashga asoslangan (2-rasm).

Butun kvadrat ildizlar kvadratlarining yaqinlashish usuli va algoritmini ishlab chiqishda quyidagi teorema o‘rnatildi va isbotlandi.

4.3-Teorema. Faraz qilaylik $N = pq$ - ikki toq tub sonlarning ko‘paytmasi va $l - N$ ning bit uzunligi (ya’ni $2^{l-1} \leq N < 2^l$). Agar $|p - q| \leq 2^{[I/4]}$, bo‘lsa, u holda $\varphi(N) = N - 1 - 2 * \lfloor\sqrt{N}\rfloor$, ya’ni, $m = \lfloor\sqrt{N}\rfloor$ deb belgilansa $\varphi(N) = N - 1 - 2m$ o‘rinli.



2-rasm. BKIKYU algoritmining blok sxemasi

Ferma, Pollard va Shanks kabi usullar kichik va o‘rta bit uzunlikdagi sonlarda samarali bo‘lsa-da, bit uzunligi ortishi bilan hisoblash murakkabligi keskin oshadi. Raqamli dala elaklari (NFS) algoritmi hozirda eng kuchli umumiy usul sifatida tan olingan va yirik RSA sonlarini faktorizatsiya qilishda qo‘llaniladi. Taklif qilingan intervallarga bo‘lish algoritmi esa $|p - q| \leq 2^{l/4}$ shart bajarilganda bit uzunligidan qat’i nazar tezkor natija beradi va qisqa vaqt ichida $\varphi(N), p, q$ qiymatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jihati uni boshqa algoritmlardan ustun qo‘yadi.

4095 va 4096 bit uzunlikdagi modul sonlar ustida o‘tkazilgan tajribalar taklif qilingan algoritmning samaradorligini aniq namoyon qildi. Xususan, 4095 bitli N soni uchun algoritm $\varphi(N)$, qiymatlarini hisoblashni 0.000248 soniyada, 4096 bitli N soni uchun esa 0.000255 soniyada yakunladi. Ushbu natijalar taklif qilingan yondashuvning hisoblash tezligi tubdan yuqori ekanligini ko‘rsatadi: faktorizatsiya jarayoni butun sonlar kvadrat ildizini hisoblash va diskriminant tekshiruvlari kabi bir nechta oddiy arifmetik amallarga asoslanganligi sababli, juda qisqa vaqt oralig‘ida yakunlanmoqda.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi “Ishlab chiqilgan usullar va algoritmlarning samaradorligini baholash natijalari” deb nomlangan. Mazkur bobda tadqiqot davomida taklif etilgan usullar va algoritmlarning samadorligini baholash, jumladan, BBKS usulining mavjud umumiy kritpografik talablar bilan o‘zaro ta’siri hamda akslantirishlarning kriptotahlil usullariga bardoshligiga ta’siri nuqtai nazaridan, faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarini baholash uchun ishlab chiqilgan KATAOF, MOKM, BKIKYU usullari va ular asosida ishlab chiqilgan algoritmlarning boshqa shu turdagi algoritmlar bilan qiyosiy solishtirish, ya’ni hisoblash murakkabligi nuqtai nazaridan baholash amalga oshirilgan.

Bobning birinchi paragrafi “BBKS usulining chiziqsiz akslantirishlar bardoshligiga ta’siri” deb nomlangan. Tahlilga ko‘ra, 4×4 o‘lchamli S-boxlarda BBKS xarakteristikasi eng avvalo strukturaviy xossalarga, xususan fiksatsiyalangan nuqtalar (FP) va qarama-qarshi fiksatsiyalangan nuqtalar (OFP) mavjudligiga qisman sezilarli darajada bog‘liq ekanligi kuzatiladi. Magma S-boxlarida FP va OFP qiymatlari mavjud bo‘lgan hollarda BBKS chetlanishlar soni 1–5 oralig‘ida bo‘lib, bu taqsimot muvozanati buzilganini ko‘rsatadi. Aksincha, FP=0 va OFP=0 bo‘lgan S-Box1–S-Box5 va S-Box9–S-Box20 guruhlarida BBKS chetlanishlari 0 ga teng, ya’ni 2-bitli kirish–chiqish juftliklari bir tekis taqsimlangan.

Shuningdek, BBKS ko‘rsatkichi qat’iy lavin effekti xossasi (SAC) bilan o‘rtacha darajada bog‘liq ekanligi aniqlandi. SAC qiymati 0.5 ga yaqinlashgan sari BBKS chetlanishlari sonining ko‘payishini ko‘rsatadi, SAC ≈ 0.625–0.656 bo‘lgan S-boxlarda esa BBKS optimal holatga yaqinlashadi. Biroq, barcha S-boxlarda chiziqsizlik (NL=4), korrelyatsiya immuniteti (CI=0) va algebraik daraja (AI=2) bir xil bo‘lgani sababli, BBKS bu ko‘rsatkichlarga bevosita bog‘liq emas degan xulosa chiqarish mumkin. Demak, BBKS asosan lokal strukturaviy simmetriya va differensial muvozanat bilan belgilanadi, umumiy chiziqsizlik ko‘rsatkichlari bilan esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan. Tahlil natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval.

4×4 o‘lchamli S-box jadvallarining umumiy kriptografik talablarga baholash natijalari va BBKS xarakteristikasi

S-box	B	SAC (=0.5)	FP	OFP	Big_SAC (=0.5)	NL	CI	AI	BBKS (Chetlanishlar (Soni))
Magma_1	+	0.5156	1	0	0.520	4	0	2	1/3 (5)
Magma_2	+	0.5469	4	1	0.510	4	0	2	1/3 (2)
Magma_3	+	0.5156	1	0	0.541	4	0	2	1/3 (1)
Magma_4	+	0.5312	2	2	0.541	4	0	2	1/3 (3)
Magma_5	+	0.5625	2	0	0.510	4	0	2	1/3 (0)
Magma_6	+	0.5459	1	1	0.552	4	0	2	1/3 (3)
Magma_7	+	0.5938	1	1	0.531	4	0	2	1/3 (1)
Magma_8	+	0.5	2	0	0.562	4	0	2	1/3 (4)
Present	+	0.625	0	1	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box1	+	0.500	0	0	0.500	4	0	2	1/3 (2)
S-Box2	+	0.500	0	0	0.500	4	0	2	1/3 (4)
S-Box3	+	0.500	0	0	0.500	4	0	2	1/3 (3)
S-Box4	+	0.500	0	0	0.500	4	0	2	1/3 (4)
S-Box5	+	0.640	0	0	0.541	4	0	2	1/3 (0)
S-Box6	+	0.640	0	1	0.541	4	0	2	1/3 (0)
S-Box7	+	0.640	0	1	0.541	4	0	2	1/3 (0)
S-Box8	+	0.640	0	1	0.541	4	0	2	1/3 (0)
S-Box9	+	0.640	0	0	0.552	4	0	2	1/3 (0)
S-Box10	+	0.656	0	0	0.520	4	0	2	1/3 (0)
S-Box11	+	0.640	0	0	0.541	4	0	2	1/3 (0)
S-Box12	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box13	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box14	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box15	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box16	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box17	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box18	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box19	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)
S-Box20	+	0.625	0	0	0.562	4	0	2	1/3 (0)

Bobning ikkinchi paragrafi “KATAOF usulining hisoblash murakkabligi” deb nomlangan. Ushbu paragrafda KATATOF usulining hisoblash murakkabligi $O((\log N)^2)$ ga tengligi ko‘rsatilgan.

Bobning uchinchi paragrafi “MOKM usulining hisoblash murakkabligi” deb nomlangan. Ushbu paragrafda MOKM usulining hisoblash murakkabligi $O((\log N)^3)$ ga tengligi ko‘rsatilgan.

Bobning to‘rtinchi paragrafi “BKIKYU usulining hisoblash murakkabligi” deb nomlangan. Ushbu paragrafda BKIKYU usulining hisoblash

murakkabligi $|p-q| \le 2^{\frac{l}{4}}$ da $O(l/2)$ va $|p-q| > 2^{\frac{l}{4}}$ da $O\left(2^{l/2} \cdot l\right)$ ga tengligi aniqlandi.

Faktorizatsiyalash algoritmlarining hisoblash murakkabligi bo‘yicha qiyosiy tahlili 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval.

Faktorizatsiyalash algoritmlarining qiyosiy tahlili

Usul yoki algoritm nomi	Asosi	Effiktiv chegarasi	Hisoblash murakkabligi	Izoh
Fermaning faktorizatsiya usuli	$N = x^2 - y^2$ ko‘rinishida ifodalash	Umumiy holda ~130–150 bit	$O\left(N^{1/2}\right)$ eng yaxshi holatda $O\left(N^{1/4}\right)$	Faqat yaqin omillarga mos
Pollardning ρ algoritmi	Tug‘ilgan kun paradoksi	130–200 bit sonlargacha samarali	$O(N^{1/4})$	Eng samarali probabilistik kichik tub bo‘luvchilar uchun
Pollard–Strassen algoritmi	ρ + FFT kombinatsiyasi	~150–200 bit	$O(N^{\frac{1}{4}} * log_4 N)$	Katta sonlarda samaradorligi cheklangan.
Shanksning kvadratik shakl usuli (SQUFOF)	Kvadratik shakllar orqali yaqin ildizlarni izlash	~100 raqam (≈ 330 bit) sonlargacha yaxshi	$O(N^{\frac{1}{4}+\varepsilon})$	O‘rtacha kattalikdagi sonlarda samarali.
Pollardning p−1 algoritmi	p−1 kichik omillarga bo‘linadigan bo‘lsa	p−1 kichik omillarga bo‘linadigan bo‘lsa	$O(N^{\frac{1}{4}} * log^c N)$	Maxsus tub bo‘luvchilar uchun tez
Leman algoritmi	kvadrat ildiz qidiruvi	70–85 bit sonlargacha	$O(N^{1/3})$	amalda o‘rnini QS bosgan
Dixon algoritmi	Kvadrat kongruensiya yig‘ish	~100 raqam (≈ 330 bit) sonlargacha	$L_N(\frac{1}{2}, 2\sqrt{2})$	QS’ning oldingi bosqichi
Davomli kasrlar usuli (CFRAC)	Kasr yaqinlashuvlaridan foydalanish	~110–120 raqam (≈ 360–400 bit) sonlargacha	$L_N(\frac{1}{2}, 2\sqrt{2})$	QS’ga o‘rin bo‘shatgan
Kvadrat g‘alvir (QS/MPQS)	Ferma usulining umumlashgan shakli	~120–130 raqam (≈ 400–430 bit) sonlargacha	$L_N(\frac{1}{2}, 1)$	GNFS paydo bo‘lgunga qadar eng tezkor umumiy usul
Lenstra ECM (Elliptic Curve Method)	Elliptik egri chiziqlar maxsus faktorizatsiya	200–400 bitli tub omillarni samarali ajratadi	$L_p(\frac{1}{2}, 2\sqrt{2})$, p – eng kichik tub bo‘luvchi	Kichik/orta tub bo‘luvchilar uchun eng yaxshi
NFS usuli	Algebraik/sonli maydonlarda g‘alvirlash	200 raqam (≈ 660 bit)	$L_N(\frac{1}{3}, \sqrt[3]{\frac{64}{9}})$	Hozirgi kunda eng tezkor umumiy algoritm
KATAOF	Tom-Kuk ko‘paytirish usuli	Mumkin bo‘lgan amaliy xotira	$O((\log N)^2)$	4 bitli qismlarga ajratib faktorlashda 16! xotira zarur
MOKM	Intervallarga tegishliligini taxmin qilishga asoslangan	Intervallarni muvaffaqiyatli taxminiga bog‘liq	$\begin{cases} O((\log N)^3) \\ O(N \cdot (\log N)^3) \end{cases}$	Intervallarni muvaffaqiyatli taxminlarida samarali
BKIKYU	$[\sqrt{N} - 1^2, \sqrt{N}]$ intervalni teng bo‘lib borishga asoslangan	$\lvert p-q \rvert \le 2^{l/4}$ shart bajarilsa bit uzunligi cheklanmagan	$O(l/2), \lvert p-q \rvert \le 2^{\frac{l}{4}}$ $O\left(2^{l/2} \cdot l\right), \lvert p-q \rvert >$	$\lvert p-q \rvert \le 2^{\ell/4}$ shart bajarilmasa algoritmning xatoligi $p + q - 2 * \sqrt{N} \pm 2$

UMUMIY XULOSALAR

Dissertatsiya ishida qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib quyidagi natijalar olindi:

1. Simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning “Bitlarning birgalikda kelishlari soni” deb nomlangan yangi usuli ishlab chiqilgan, mazkur usul S-box akslantirishlarini baholashda mavjud umumiy kriptografik talablarga qo‘shimcha talab sifatida xizmat qiladi va chiziqsiz akslantirishlarga kirish bitlarining birgalikda kelishlari chiqishda qanday tartibda takrorlanishiga asoslangan holda shifrlash kalitlarini aniqlash imkonini bergan;

2. Simmetrik shifrlash algoritmlarinining chiziqsiz akslantirishlarini baholashning “Bitlarning birgalikda kelishlari soni” deb nomlangan yangi usuli asosida shifrlash kalitini aniqlashning ikkita algoritmi ishlab chiqilgan, mazkur algoritmlar 4x4 o‘lchamli S-box akslantirishlariga mos maxfiy kalitning 75 foizini, ayrim S-boxlar uchun esa 100 foiz aniqlik bilan taxmin qilish imkonini berdi;

3. Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan yangi ko‘paytirish amallariga teskari amallar orqali faktorlash (KATAOF) usuli ishlab chiqilgan, mazkur usul sonlarni ko‘paytirishdagi munosabatlar orqali faktorlash imkonini beradi;

4. Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun sonlarni ko‘paytirishning Tom-Kuk usuliga asoslangan KATAOF usuli asosida ikkita KATAOF-1 va KATAOF-2 faktorlash algoritmlari ishlab chiqilgan, mazkur algoritmlar $2^{\frac{l}{2}-2}$ xotirani ta’minlash imkoniyati mavjud bo‘lganda l bitli RSA ochiq kalitli shifrlash algoritmining modulini faktorlash imkonini beradi;

5. Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining maxfiy kalitni aniqlashning maxfiy va ochiq kalitlar munosabatiga asoslangan kichik razryadli RSA modullarida samarali hisoblangan MOKM usuli ishlab chiqilgan, mazkur usul p va q tub sonlarning qaysi intervallarga tegishli bo‘lishi mumkinligining muvaffaqiyatli taxminlarida maxfiy kalitni aniqlash imkonini beradi;

6. Faktorlash muammosiga asoslangan ochiq kalitli shifrlash algoritmlari uchun maxfiy kalitlarni aniqlashning butun kavdrat ildizlar kavadratining yaqinlashuvi usuli (BKIKYU) deb nomlangan maxfiy kalitlarni aniqlash usuli ishlab chiqilgan, mazkur usul asosida algoritm ishlab chiqilgan, mazkur algoritm RSA ochiq kalitli shifrlash algoritmining moduli l bit bo‘lganda, $|p-q| \le 2^{\frac{l}{4}}$ shart bajarilganda $\frac{l}{2}$ qadam bilan maxfiy kalitlarni aniqlash imkonini berdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.FM.01.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

БОЙКУЗИЕВ ИЛХОМ МАРДАНОКУЛОВИЧ

МЕТОДЫ И АЛГОРИТМЫ ОЦЕНКИ СИММЕТРИЧНЫХ АЛГОРИТМОВ ШИФРОВАНИЯ И АЛГОРИТМОВ ШИФРОВАНИЯ С ОТКРЫТЫМ КЛЮЧОМ

05.01.05 – Методы и системы защиты информации. Информационная и кибербезопасность

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2026.DSc/FM316.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и на Информационно образовательном портале“ZiyoNet” (www.ziyonet.uz).

Научный советник:	**Абдурахимов Бахтиёр Файзиевич** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Курьязов Давлатяр Матякубович** доктор физико-математических наук
	Туйчиев Гулям Нумонович доктор физико-математических наук
	Ботиров Файзулладжан Бахтиярович доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи Министерства обороны Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-72-24, факс: (+99871) 246-53 -21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована №____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года
(протокол рассылки №____ от «_____» _____ 2026 года).

М.М. Арипов
Председатель Научного совета по-присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук, профессор

З.Р. Рахмонов
Ученый секретарь Научного совета по-присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук, доцент

А.В. Кабулов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире особое внимание уделяется вопросам оценки симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом к методам криптоанализа, в частности разработке методов и алгоритмов, оценки устойчивости нелинейных преобразований к криптоаналитическим атакам, направленных на прогнозирование (угадывание) или определение значений ключей шифрования и определение секретных ключей алгоритмов шифрования с открытым ключом, основанных на проблеме факторизации, а также на факторизацию достаточно большого модуля в алгоритмах шифрования с открытым ключом. В действующих криптографических системах используемые алгоритмы, длины ключей и параметры должны регулярно пересматриваться с учётом современных методов криптоанализа и вычислительных возможностей аппаратных средств. По данным Chainalysis, «в 2024 году ущерб, причинённый атаками на криптографические системы во всем мире, увеличился на 21,07% по сравнению с 2023 годом и составил 2,2 миллиарда долларов США» [4]. Для предотвращения ущерба такого масштаба необходимо оценивать безопасность криптосистем на основе многоуровневого комплексного подхода, в том числе с применением методов оценки, опирающихся на вычислительную сложность математических задач. В связи с этим особое внимание уделяется задачам, связанным с разработкой современных методов криптоанализа для оценки симметричных и асимметричных алгоритмов шифрования.

В мире ведутсямасштабные научные исследования, направленные на разработку стойких криптографических алгоритмов и повышение их надёжности в целях обеспечения информационной безопасности. В этих исследованиях, прежде всего, в качестве актуальной задачи рассматриваются выявление слабых мест действующих алгоритмов шифрования с использованием методов криптоанализа, оценка их устойчивости к различным моделям атак, а также проектирование безопасных и надёжных алгоритмов на основе полученных результатов. Важное значение имеет оценка криптографической стойкости нелинейных преобразований, применяемых в алгоритмах симметричного шифрования, на основе математических критериев. В целях обеспечения устойчивости к дифференциальному, линейному, алгебраическому и иным методам криптоанализа особое внимание уделяется анализу свойств S-блоков и других нелинейных компонентов, а в криптографии с открытым ключом исследования сосредоточены на углубленном изучении математических основ систем шифрования, оценке их степени сложности, а также разработке методов оценки, основанных на новых подходах, обеспечивающих их устойчивость к существующим и потенциальным атакам.

В нашей республике большое внимание уделяется обеспечению информационной безопасности, в частности развитию области криптологии, организации криптографической защиты информации, разработке стойких криптографических алгоритмов и созданию современных методов криптоанализа. В частности, в последние годы достигаются определенные

[4] https://www.chainalysis.com/blog/crypto-hacking-stolen-funds-2025/

результаты в реформах, проводимых в сфере образования и развития науки в области криптологии. В Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-293 «О дополнительных мерах по развитию образования и науки в сфере криптологии в Республике Узбекистан» подчёркивается необходимость непрерывного совершенствования криптографических алгоритмов, применяемых для защиты информации и в программе научно-исследовательских работ по актуальным направлениям развития национальной криптологии Республики Узбекистан на 2024–2028 годы, утверждённой данным постановлением, предусмотрено выполнение научно-исследовательской работы по разработке современных методов криптоанализа[2]. В процессе реализации указанных задач важное значение имеют разработка новых методов оценки и анализа криптостойкости современных криптографических алгоритмов, проведение экспериментальных исследований по оценке сложности криптографических алгоритмов на основе разработанных методов, а также оценка эффективности этих методов.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, установленных Законом Республики Узбекистан от 15 апреля 2022 года № ЗРУ-764 «О кибербезопасности», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлением Президента Республики Узбекистан от 3 апреля 2007 года № ПП-614 «О мерах по организации криптографической защиты информации в Республике Узбекистан», постановлением Президента Республики Узбекистан от 31 мая 2023 года № ПП-167 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы обеспечения кибербезопасности объектов критически важной информационной инфраструктуры Республики Узбекистан», а также иными нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики IV. «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий».

Обзор научных исследований по теме диссертации.

Научные исследования в области криптографических методов защиты информации, создании симметричных алгоритмов шифрования и их оценки методами криптоанализа, создании симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом, а также оценки их криптостойкости проводятся ведущими мировыми научно-исследовательскими центрами и высшими учебными заведениями, включая: Национальный институт стандартов и технологий (NIST, США), Агентство национальной безопасности (NSA, США), Европейский институт телекоммуникационных стандартов (ETSI, Франция), Международную организацию по стандартизации (ISO, Швейцария), Институт инженеров по электротехнике и электронике (IEEE, США), ООО «UNICON.UZ» (Узбекистан), Массачусетский технологический институт

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-293 sonli Qarori

(США), Стэнфордский университет (США), Калифорнийский университет (США), Университет Карнеги - Меллона (США), Оксфордский университет (Великобритания), Кембриджский университет (Великобритания), Федеральный технологический институт Цюриха (Швейцария), Федеральную политехническую школу Лозанны (Швейцария), Мюнхенский технический университет (Германия), Католический университет Лёвена (Бельгия), Национальный университет Сингапура (Сингапур), Университет Цинхуа (Китай), Пекинский университет (Китай), Токийский университет (Япония), Корейский институт передовых наук и технологий (KAIST, Республика Корея), Тель-Авивский университет (Израиль), Институт науки Вейцмана (Израиль), Индийский технологический институт (Индия), Наньянский технологический университет (Сингапур), Российскую академию наук (Россия), Московский государственный университет (Россия), Санкт-Петербургский государственный университет (Россия), Белорусский государственный университет (Беларусь), Национальный университет Казахстана (Казахстан), Кыргызско-Турецкий университет Манас (Кыргызстан), Национальный университет Таджикистана (Таджикистан), Национальную академию наук Азербайджана (Азербайджан), Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезмий (Узбекистан), Центр цифровых технологий и информационных технологий при Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезмий (Узбекистан) и Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан).

В результате исследований, проведённых в мире в области криптографических методов защиты информации, создании симметричных алгоритмов шифрования и их оценки методами криптоанализа, создании симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом, а также оценки их криптостойкости, получены следующие результаты: разработаны новые конструкции симметричных алгоритмов шифрования на основе их S-блоков и нелинейных преобразований; выполнена математически обоснованная проверка их безопасности; получены и доказаны теоретические и практические результаты по криптографической оценке алгоритмов шифрования с открытым ключом и их применению в прикладных системах.

Например, в научных центрах и университетах России и США проводились исследования по выявлению слабых мест симметричных алгоритмов шифрования на основе их анализа и по их оптимизации; в университетах США, Китая и Японии изучались алгоритмы постквантовой криптографии и методы криптоанализа, в исследовательских центрах Германии, США и Швейцарии в области шифрования с открытым ключом и алгоритмов электронной цифровой подписи разрабатывались математические модели, оценивались длины ключей и параметры безопасности; в университетах Франции и Италии выполнялись разработки по тестированию электронной цифровой подписи и криптографических протоколов в прикладных системах. В научных центрах Республики Корея, Израиля, США, России и Индии в рамках развития методов криптоанализа были разработаны подходы к алгебраическим атакам, дифференциальному и линейному анализу, а также механизмы защиты от атак по побочным каналам. Масштабные научные исследования по симметричным

алгоритмам шифрования и алгоритмам шифрования с открытым ключом и оценке их криптостойкости проводились в Институте математики им. С. Л. Соболева Российской академии наук, Институте вычислительной математики и математической геофизики, Институте вычислительной математики Уфимского научного центра, а также в Московском и Санкт-Петербургском государственных университетах.

Исследования в данной области ведутся в университетах и научных центрах США, Великобритании, России, Швейцарии, Германии, Италии, Китая, Японии и Республики Корея, а также в Республике Узбекистан - в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезмий, ООО «UNICON.UZ», Центре цифровых технологий и информационных технологий при Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезмий и Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

В мире продолжаются научные исследования, посвящённые методам и алгоритмам оценки симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом. В рамках этих исследований изучаются приоритетные направления, включая: оценка симметричных алгоритмов шифрования к методам криптоанализа и создание их нелинейных преобразований в соответствии с общими криптографическими требованиями и применение новых подходов в процессе оценки, разработка новых методов оценки алгоритмов с открытым ключом, в том числе создание методов и алгоритмов для определения секретных ключей и параметров в криптосистемах, основанных на проблеме факторизации, посредством анализа соотношений между открытым и секретным ключами; а также разработкановых методов и алгоритмов факторизации с применением современных подходов.

Степень изученности проблемы. В области криптографической защиты информации, разработки симметричных алгоритмов шифрования и оценки их стойкости к методам криптоанализа исследования проводились такими учёными, как H. Feistel, M. Matsui, J. Daeman, D. Knut, S. Maitra, A. Youssef, N. Tokereva, O. Rothaus, X. Zhang, A. Webster, Y. Liu, L. Brown, V. Parihar, A. Sorkin, X. Zhu, A. Biryukov, M. Dawson, S. Fischer, K. Zamli, N. Siddiqui, M. Spain, C. Carlet, W. Meiyer, W. Stallings, C. Pomerance, J. Ding, M. Kavut, I. Yilmaz, T. Kasami, S. Tavares, Y. Yang, W. Zang, Y. Wang, M. Ahmad, L. Babenko, E. Ishukova, E. Maro, кроме того, разработки алгоритмов шифрования с открытым ключом на основе задач различной вычислительной сложности и методов их оценки исследования выполнялись такими учёными, R. Rivest, A. Shamir, L. Adleman, N. Koblitz, M. Pollard, A. Lenstra, R. Leman, J. Dixon, A. Joux, K. Lauter, M. Morrison, C. Pomerance, P. Montgomery и др.

В нашей республике исследования в области криптографических методов защиты информации, хеш-функций, разработки симметричных алгоритмов шифрования и алгоритмов шифрования с открытым ключом, алгоритмов электронной цифровой подписи, а также оценки их криптостойкости проводились такими исследователями, как П. Хасанов, М. Арипов, М. Каримов, С. Ганиев, Б. Абдурахимов, А. Кабулов, Д. Акбаров, Х. Хасанов, О. Ахмедова, Г. Жураев, Д. Курьязов, Г. Тучиев, Б. Ахмедов, А. Сатторов, З. Худойкулов. О.

Алланов, М. Бердыморудов, У. Мардиев.

